

Navro`zi ayyom muborak!

Navro`z - xalqimizning ma`naviy dunyosini, azaliy ozru-umidlarini, turmush tarzini namoyish etadigan, mehr-muruvvat, insonparvarlik, go`zallik, yosharish va yangilanish kabi fazilatlarni o`zida mujassam qilgan bayram.

Navro`zi olam - sharqona yangi yil. U bahordek go`zallik va nafosatni o`zi bilan birga xalqimizning ongu tafakkuri, qalb-shuuriga singib ketuvchi, xonadonlarimizga shodu xurramlik olib keluvchi aziz va qadri milliy bayramimizdir.

Ushbu qut-baraka bayrami barchamizga muborak bo`lsin! Tilagimiz - hamisha el-yurtimiz, xonadonlarimiz tinch, osmonimiz musaffo, dasturxonlarimiz to`kin, rizqimiz butun bo`lsin!

